



ICHKI MANBADA ASOS TILDAGI SO‘ZLARNING SEMANTIK MA’NOSI
XOSLANGAN HOLDA ARGO HOSIL QILISH

R.Nuritdinova

FarDU, 3-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Semantik derivatsiya tushunchasi birinchi bo‘lib fanga rus olimi D.N.Shmelev tomonidan kiritilgan bo‘lib, unda polisemantik so‘zning ma‘nolari orasidagi o‘zaro aloqa nazarda tutiladi. Jinoyat leksikasini tashkil etuvchi asosiy unsur bo‘lgan argo standartdagi so‘zning ma‘lum bir semasiga tayangan holda uni qayta nomlab substandartga aylantiradi.*

Tayanch so‘z va iboralar: *semantik derivatsiya, ko‘chim turlari, idiolect*

Semantik derivatsiya argo hosil qilishda juda muhim unsur hisoblansa-da ko‘chim asosida ham argo hosil qilish kuzatiladi. Shartli ravishda ichki manba uch turga bo‘linadi:

- a) derivatsion nomlash;
- b) qayta nomlash;
- v) idiolekt asosida nomlash.

Derivatsion nomlash asosida argo hosil qilinganda bir so‘zning nominativlik tomoni saqlanadi, semantik jihatdan ma‘nosi birozgina xususiylashadi:

*Sen qilmagan bo‘lsang, bu ishni **shotirlaring** qilishadi. La‘nat esa senga oqib kelaveradi.* (T.Malik. Shaytanat, 1- kitob, 65-bet).

Shotir so‘zi tarixiy so‘z hisoblanib, “podshoh mingan ot jilovini ushlab boruvchi amal”⁵⁰ ma‘nosini anglatadi. Mazkur so‘z mafiya olamida kichik vazifalarni bajaruvchi o‘g‘ri va kissavurlarga nisbatan qo‘llaniladi. Shotir so‘zining nomi saqlangan holda vazifasi biroz o‘zgaradi. Keyingi misolni olsak:

- **Cho‘talni** endi kimga beryapsiz? Bek akamgami?
- Bek akangiz **cho‘tal** oladigan gadolar toifasidan emaslar. Shuni bilmasmidingiz?

(T.Malik.Shaytanat, 2-kitob, 202-bet).

Aslida cho‘tal – qimor o‘yinlarida yutgan tomondan olinadigan pul, ulush⁵¹. Bu yerda esa jinoiy guruh boshlig‘i o‘ziga tegishli hududlardagi daromad egalaridan ulush olishi nazarda tutiladi. Demak, derivatsion usulda ma‘lum bir tushunchadan argo hosil qilinganda so‘zning nominativlik funksiyasi saqlanib qolsa ham, semantik ma‘nosi tubdan bo‘lmasa-da biroz o‘zgaradi: yanada torayib jinoyat olamiga xoslangan tarzda “xususiylashadi”.

Qayta nomlashda ma‘lum bir predmet/shaxs/harakat funksiyasi, xususiyati, belgisi, aloqadorlik asosida yangi subkod hosil qilinadi. Jinoyat argosi o‘ziga xos tarzda ifodalanar ekan, obrazli konnotativ ma‘noda tasvirlash kuchli hisoblanadi. Shu jihati bilan u

⁵⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент: ЎзФА, 2006-2008. – Б.345.

⁵¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: ЎзФА, 2006-2008. – Б. 387.



frazeologik birlikka o'xshab ketadi. Biroq argo frazeologik birlikdan adabiy til qatlamiga mansub emasligi bilan farq qiladi. "Dunyo tilshunosligidagi argoshunoslar argoda konnotiv ma'no bo'lishi va bu ko'chim turlari asosida yuzaga chiqishini ta'kidlashadi"⁵².

Chindan ham, aksariyat jinoyat leksikasi adabiy tildagi, ya'ni standartdagi mavjud so'zning ko'chma ma'noda qo'llanib substandart hosil qilinishi asosida yaratiladi:

metonimiya asosida:

*Krasnoyarga sisternalarda vino yuborish kerak. **Bexit qilish** qo'lingdan keladimi?*
(Shaytanat, 1-kitob, 206- bet).

*«Sen menikiga borganingda men bu yerda edim», deyishining hojati yo'q edi. Asadbek uyiga qaytgach, «bir nimadan **xitlanmadilarmikin?**» deb ilova qilgan edi.*
(Shaytanat, 2-kitob, 56-bet).

Mazkur misolda *xit* so'zi militsiya xodimiga ishora qiladi. Aslida "*xit* so'zi – *tajang, asabiy, bo'g'ilgan*"⁵³ ma'nolarini anglatadi. Tinchlik posbonlarining jinoyatchilar ishiga aralashishi ularni tajanglik holatiga tushirishi tabiiydir. Shu boisdan ham militsioner xodimi o'g'rilar bilan jinoyat yuzasidan tergov olib borganda, ular ko'pincha "*xit qildi*" deya arz qilishadi. Keyinchalik mazkur so'z to'laligicha shaxsning o'ziga nisbatan qo'llanila boshlangan.

Rejissor A.Seriyning "Omadli jentelmenlar" kinofilmida jinoyatchilar lug'ati sanab o'tilib, "*qochmoq*" ma'nosi "*oyoq qilmoq*", "*oyoq bermoq*"⁵⁴ shaklida keltiriladi. Ma'lum hududdan qochish aynan oyoq a'zosi vositasida amalga oshirilganligi bois mazkur o'xshatish metonimik ko'chim turiga mansub bo'lib, bunda aloqadorlik asosida ma'no ko'chishi yuz bermoqda.

metafora asosida:

Jinoyat argosini hosil qilishda metaforaning o'rni beqiyosdir. Bunda shakl-shamoyil, xususiyat, belgi asosida argolar hosil qilinadi:

– *Shu quyonyurak bilan bunaqa **shilta ishlarga** aralashib yuribsanmi?*
(Shaytanat, 1-kitob.192-kitob).

Mazkur misoldagi *shilta ish* so'z birikmasi orqali ketidan turli muammolar paydo qiluvchi "ish" nazarda tutilmoqda. Aslida "*shilta* so'zi – 1) *nihoyat darajada ho'l, jiqqa ho'l*; 2) *yomg'ir yog'ishi, qor erishi va sh.k.dan yuzaga chiqadigan bilch-bilch holat, yerning shunday holati*"⁵⁵ ni anglatadi, jinoiy guruhi nutqida "*muammoli ish*" (*toza ish emas*) ma'nosida, ya'ni toza ish emas, balki kir ishga aralashishga nisbatan qo'llaniladi.

Jinoyat olamida laqablar juda katta o'rinni egallaydi va bir-biriga murojaat shaklini yaratishda ko'pincha ulardan foydalaniladi:

⁵² Лихачёв Д.М. Русское искусство от древности до авангарда. – М.: [Искусство](#), 1992. – С. 373.

⁵³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: ЎзФА, 2006–2008. – Б. 402.

⁵⁴ <http://www.hduz.net/filmy/13811-omadli-jentelmenlar.html> (Murojaat sanasi: 30.07.2022).

⁵⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: ЎзФА, 20006–2008. – Б. 572.



Bu yerdan chiqib qozixonaga borgan Xumkalla barcha xabarni hojasiga etkazgan, hatto qatiq qo'shilmagan moshxo'rdaning ichilmaganini ham aytib ...

(Shaytanat, 2-kitob, 56-bet).

Xumkalla deyilishiga sabab mazkur jinoyatchining kallasi xumga o'xshash bo'lganligi uchundir.

“Chuvrindi” degan laqab barvasta, yuzlari hamisha qip-qizil, ovozi temir jarangiday bu odamga uncha mos kelmaydi. Yoshligida olgan bu laqabiga ko'nikib ketgan.

(Shaytanat, 1-kitob, 40-bet).

Zelixonning laqabi “akademik” edi. Bunga sabab — u puxta o'ylab olib, so'ng ishga kirishardi. Uning boshqalardan farqi — odamlar ruhiyatini albatta hisobga olardi.

(Shaytanat, 1-kitob. 47-bet).

Yuqoridagi barcha laqablar jinoyatchilarning tashqi qiyofasi, fe'l-atvori kabi xususiyatlari asosida yaratilgan.

*Men seni “**baron**”lik taxtini egallab bo'libsan, deb o'ylabman.*

(Samum, 20-bet).

G'arbda “baron” graflikdan keyin turuvchi oliy toifa hisoblanib, jinoyat olamida giyohvand moddalar bilan shug'ullanuvchi eng katta rahbarga ishora qiladi.

Aroqxo'rlar esa spirtli ichimlikni iste'mol qilganda, odatda, tilak bildirishadi. Bu jarayonni o'zlarining tilida “**mixlab qo'ymoq**”⁵⁶ deb nomlashadi. Mixlab qo'yilgan narsa hech qayerga siljimaganidek, niyatni mixlab qo'ysa, ijobat bo'lishiga ishonishadi. Bu harakatdagi ko'chim turi hisoblanadi.

Pachoqburunning hozir ro'paraga kelib o'tirishi yoqmadi, g'ashiga tegdi.

– Sen **juchok**larga tayinla, bundan uzoqroq yurishsin. Ammo har bir qadamini kuzatishsin.

*Aytib qo'y, kim bunga yaqinlashsa, **tramvayga** qo'yiladi.*

– Xo'p, – dedi Pachoqburun mutelik bilan.

(Murdalar gapirmaydilar, 22-bet).

Mazkur misoldagi “juchok” tajribasi kam, mayda o'g'rilar ma'nosini anglatadi, “tramvay” esa jinoyat olamidagi maxsus jazolash turi hisoblanadi. Ushbu misollarda predmetning tashqi ko'rinishi asos sifatida olingan. “Juchok” rus tilida hasharotni bildirib, uni oyoq bilan bosib o'ldirish osondir. Bu bilan mayda o'g'richalarni ham qiyinchiliksiz yo'q qilish mumkinligi, ular ahamiyatsiz arziyas mavjudot ekanligi ta'kidlanmoqda yoki keyingi misolni olsak:

*Marjangni olgin-u, uchoving ham tez **qurilaring** bu yerdan.*

(Talvasa, 98-bet).

Jinoyatchilar leksikasida “qurimoq” fe'li “daf bo'lmoq”, “yo'qolmoq” ma'nolarida qo'llanadi. Qurish xatti-harakati izning yo'qolishiga olib kelgani kabi jinoyat joyidan tezda

⁵⁶ Аваз Охун. Алкашларнинг узкий круги. <https://www.youtube.com/watch?v=flsh3wQuHXk>. (Murojaat sanasi: 18.08.2022).



yo‘qolishni nazarda tutadi. Bunda so‘zlarning aniq ma‘nosi emas, balki ramziy yoki yashirin ifodasi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “muzlatkich” qamoqxonani, “tozalash” esa odam o‘ldirishni, “chizish” jinoyat olamida kimnidir o‘ldirish yoki yo‘q qilishni anglatishi mumkin. “Olcha yemoq” – qamoqqa tushish bilan bog‘liq yashirin ibora, “g‘ilof” – jinoyat olamida pichoq yoki qurolni, “qush bo‘lish” – xiyonat qilish yoki militsiyaga axborot uzatish ma‘nosida ishlatiladi.

sinekdoxa asosida: **Mazkur ko‘chim turida ko‘pincha yakka shaxsning nomi umumiy millatga ishora qilish holatlari kuzatiladi. Bunda jismoniy qismlar orqali butun ifodalanadi: qo‘l o‘g‘ri ma‘nosida kelishi mumkin. Masalan, monka - yahudiylar, kim - koreyslarga ishora sifatida.**

allyuziya asosida: jinoyat argosini hosil qilishning o‘ziga xos yana bir turi mavjud bo‘lib, bu faqat ijtimoiy leksika doirasidagina kuzatiladi. “Allyuziya ham ma‘no ko‘chish usuli hisoblanib, unda substandartlar ma‘lum bir adabiyot, madaniyat, san‘at, tarixga tegishli ma‘lumot/voqealar bilan bog‘langan holdagina anglashiladi”⁵⁷. Masalan:

Baxtini qarangki, u o‘sha “Udav” bilan vagonda birga bo‘libdi, bu nodon “Udav” qochibdi, uning xazinani o‘g‘irlaganiga Gobelyanning odamlari ishonib- di. “Udav” bo‘g‘ib o‘ldirishi hech kimning xayoliga kelgan emas.

(Murdalar gapirmaydi, 130 bet).

Udav bu “38 to‘tiqush” multfilm qahramoni bo‘lib, uzun va aqlli ilon hisoblanadi⁵⁸. Ana shu ilondagi xususiyat – aqllilik hamda ozuqasini bo‘g‘ib o‘ldirishlik mazkur filmni ko‘rgan shaxsgagina ma‘lum bo‘ladi. Yuqoridagi misoldagi jinoyatchi aynan ilon kabi xususiyatlarga ega ekanligiga ishora qilinmoqda.

Umuman olganda, qayta nomlash asosida subkodlar hosil qilinganda, asosan, ko‘chim turlaridan foydalaniladi. Bu esa ko‘chma ma‘no hosil bo‘lishining o‘ziga xos sistemasi hisoblanadi:

Cho‘ntak, belbog‘ kesishga Haydardan o‘tadigani yo‘q edi. Xullas, belbog‘ kesildi. Kesishga kesdiyu og‘irligidan hayron bo‘ldi. Panaroqqa o‘tib qarasaki, belbog‘da sariq chaqa ham yo‘q – besh-oltita kesak hafsala bilan terib qo‘yilgan. Haydar “bu qishloqi ko‘zni shamg‘alat qilmoqchi ekan”, deb o‘yladi. Aslida shaharni bir tomosha qilib kelay, deb yo‘lga otlangan bu dehqon “tahoratga kesak topiladimi yo‘qmi” deb har ehtimolga qarshi belbog‘iga tugib olgan edi. Shu shu Haydarning ismi kesak polvonga aylandi qoldi.

(Shaytanat, 1 kitob. 35-bet).

Rus tilshunosligida metaforik, metonimik qayta nomlashdan tashqari, kodlash, fonetik o‘zgarishlar asosida ham subkodlar hosil qilinishi haqida ham ma‘lumotlar berilgan”⁵⁹.

⁵⁷ Усакова А.И. Статус арга в английском языке и художественной речи. Автореф.дис.кан.наук. – Воронеж, 2014. – С.29.

⁵⁸ <https://www.youtube.com/watch?reload=9&v=bbnJ9u7Xxt8> (Murojaat sanasi: 11.06.2023).

⁵⁹ Овчинникова О.А. Французское арга конца XX века: словообразование и семантика. Автореф.дис.кан.наук. – М., 2010. – С.7.



Tadqiqotimiz davomida o'zbek tilida argolar, asosan, metaforik o'xshatish asosida hosil qilinishi kuzatildi. Bu bo'yicha argoshunos olimi O.A.Ovchinnikova ta'kidlab o'tganidek: "Metaforik usulda argo hosil qilish boshqa ko'chim turlaridan ko'ra sermahsuldir"⁶⁰. Biroq boshqa usullar asosida ham subkodlar hosil qilinadi.

Idiolekt asosida nomlash. Mazkur nomlash turini o'g'rilarining haqiqiy sof tili/nutqi deyishimiz mumkin, chunki bunda ma'lum standart asosida substandart hosil bo'lmaydi: so'z to'qima, idiolekt asosida hosil qilinib, standart tilda ma'no anglatmasa-da, jinoyat tili/nutqida muayyan tushunchani anglatadi. Bunday so'zlarni "ichi bo'sh so'zlar" ham deyish mumkin:

– Senga **yesh-shak** deb laqab qo'yishibdi. Nima uchun aynan «esh-shak»?

Nuriddin Tengiz tikilganida ko'zlarini olib qochmadi. «Sendan qo'rqadigan odam emasman», deganday tik boqqanicha turaverdi.

– Gapimga javob ber: nima uchun seni **yesh-shak** deyishdi?

(Murdalar gapirmaydilar, 7-bet).

– Bilishga qiziqayotgan bo'lsalaring aytaman: **"Yeshshak"** Bublikka egilmagan bola.
(T.Malik. Murdalar gapirmaydilar, 14-bet).

"Yeshshak" so'zi o'g'rilar guruhiga tegishli shaxslar nutqidagina qo'llanib, bunday so'zlar guruh tashqarisida hech qanday ma'noni anglatmaydi.

– **Yenzedan** ol, uyqu qochdi, – dedi Tengiz ham xomuza tortib.

(Yenze deganda ehtiyotdan yashirib qo'yilgan aroq nazarda tutilyapti.– Muallif izohidan). (Murdalar gapirmaydilar, 120-bet).

Umuman olganda, jinoyat nutqidagi "ichi bo'sh" argolar barcha tillarda mavjud bo'lib, "begonalar" uning ma'nosi anglash uchun faqatgina mazkur olamga tegishli bo'lishi darkor. Masalan, rus tilida: "abas (ahmoq), bat (uy), bayan (shprints)"⁶¹ va h.k. Bunda so'zlar yasalmaydi, balki semantik jihatdan improvizatsiya qilinadi. Ma'nosi sir tutiladi hamda tez-tez yangi nomlar almashib turiladi. Hattoki ma'lum bir o'g'rilik uchun alohida so'zlar yaratilib, o'sha ish yakun topishi bilan mazkur so'zlardan ham foydalanishmaydi. "Ichi bo'sh" argolarning eng asosiy vazifasi sir tutish hisoblanadi. Bu esa tabiiyki, juda tor doiradagina qo'llanishni hamda uzoq vaqt mavjud bo'lmaslikni talab etadi. Ko'proq bunda guruh a'zolari axborotlarni o'zaro almashish va ulashish uchun foydalanishadi. Bunday argolarning hosil qilinishida hech qanday qoida mavjud bo'lmaydi, shunchaki "kashf" qilinadi hamda o'z vazifasini o'tagandan so'ng yoddan chiqariladi. Hatto shunday holatlar ham kuzatiladiki, har bir jinoyat uchun yangi subkodlar hosil qilinadi va bu so'zlar keyingi jinoyatda qo'llanilmaydi. Bu bilan jinoyatning sirililigi taminlanadi.

⁶⁰ Усакова А.И. Статус аргос в английском языке и художественной речи. Автореф.дис.кан.наук. – Воронеж, 2014. – С.29.

⁶¹ Грачев М.А. Словарь тысячелетнего русского аргос. – М., 2003. – 1119 с.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аваз Охун. Алкашларнинг узкий круги.
<https://www.youtube.com/watch?v=fIsh3wQuHXk>. (Murojaat sanasi: 18.08.2022).
2. Грачев М.А. Словарь тысячелетнего русского аргю. – М., 2003.
3. Лихачёв Д.М. Русское искусство от древности до авангарда. – М.: **Искусство**, 1992.
4. Овчинникова О.А. Французское аргю конца XX века: словообразование и семантика. Автореф.дис.кан.наук. – М., 2010.
5. Усакова А.И. Статус аргю в английском языке и художественной речи. Автореф.дис.кан.наук. – Воронеж, 2014.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент: ЎзФА, 2006-2008.